



**BUYUK SHOIR VA HUKMDOR ZAHIRIDDIN MUHAMMAD
BOBURNING VATAN SOG'INCHIGA GIRIFTOR BO'LGAN NOLASI.**

Mirshokirova Gulchehrabonu Shuxrat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

mirshokirovagulchehra@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk mutaffakir shoir va buyuk hukmdor Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li va uning ijodiy faoliyati, buyuk va olmos kabi muqaddas ruboiy va g'azallari to'g'risida so'z boradi. Zahiriddin Muhammad Boburning boshiga tushgan mushkulotlardan qanday yechim topishi va o'z ona vataniga bo'lgan cheksiz muhabbati ifodalangan bir qancha ruboiy va g'azallarini ko'rib o'tamiz.*

Kalit so'zlar: *“Boburnoma”, Zahiriddin Boburning tarixi, ona yurtga bo'lgan sog'inch, davlat boshqaruvi, siyosiy mojarolar, Mavaraunnahrni egallash, Andijonni tashlab chiqib ketish, Hindistondagi yangilanishlar, g'azallar, ruboiy.*

Boburni burun mahrami asror etting,

Vaslingga berib yo'l, o'zungga yor etting

Oxir bording, dog'i oni zor etting,

Hijron alami giriftor etting.

Har bir insonning o'z tarixi bo'lgani kabi uning xotirasi, bosib o'tkan har bir qadami va undan qolgan meroslari mavjuddir. Insonni tarixi mavjud ekan uning tarix sahifalaridagi o'rni, yillar davomida qalbimizda mangu muhrlanib qoladi. Shu insonlar kabi buyuk bobomiz O'rta asr Sharq madaniyati va adabiyotining namoyandasi Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li, uning qarashlari haqida fikr yuritamiz. 1483- yil 14- fevral sanasida Andijonda tavallud topgan Bobur Temuriylar davlati asoschisi edi. U yoshlik chog'idanoq ilm olishga bo'lgan shijoati tufayli adabiyotga va shoirlikka qiziqish bildirgan. Bu albatta buyuk sarkarda Amir Temurning avlodi bo'lmish Boburning qonida mavjud bo'lgan ilmga intilishdir. U yoshlik chog'idanoq shoirlik bilan shug'ullangan va bu bilan birga istedadli sarkarda



bo'lib ham yetishgan. Lekin bu yoshgina murg'ak qalb oz muncha qiyinchilik va sinovlarni boshdan kechirmadi. Yoshi 12 ga yetkanda padaribuzrukvor jondan sevgan otasi Umarshayx Mirzoning o'limi Boburning qalbini parchalab yubordi. Otadan ayrilgani yetmagandek shu kundan boshlab boshiga juda ko'p qiyinchilik va sinovlar yog'ila boshladi. Davlat taqdiri yoshgina bolaning qo'lida qoldi. Bir narsani takidlab o'tish kerakki Bobur otadan ayrilgan bo'lsada o'rnida tik tura oldi, albatta bunga uning validasi Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi, katta yordam berdi. Boburning onasi o'qimishli, ilimli va oqila ayol bo'lib, unga hokimiyatni boshqarishda yordam bergan va harbiy yurishlarda unga hamrohlik qilgan. Bobur yoshlik chog'idanoq temuriy shahzodalar kabi harbiylik san'atini o'rgana boshlaydi va uning dovyurakligi, jasurligi bois "Sher" yani "Bobur" tahallusini oladi. Bobur taxtga o'tirgandan so'ng ko'pchilik xonlar va beklar unga bo'sunishdan bosh tortishdi va o'sha vaqtlarda Movarounnahr ostun ustun bo'layotgan paytlarga to'g'ri keladi. Ularni ko'pchiligi Boburni ukalarini yoqlasa ba'zilar uning amakisi va tog'asi bo'lmish Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Mahmudxonlarning taxtni egallashini istardi. Bobur ular bilan kurashib, o'z davrining daslabki 2-3 yili mavqeini mustahkamlash va amaldorlar bilan o'zaro munosabatni yaxshilashda kechdi. Uning dastlabki maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti bo'lmish Samarqandni egallash edi.

U bu maqsadga erishish uchun 2 marta yurish qiladi lekin udasidan chiqolmaydi va 1497-yili kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni 7 oy ichida qamalda saqlaydi va nihoyat u Samarqandni egallaydi. Afsuski bu vaqtlar Bobur uchun juda qiyin kechadi Samarqand qamaldan so'ng juda ham qattiq qiyinchilikda bo'ladi. Aholi ochlikdan qiynaladi, uning ustiga Andijon ham tinch bo'lmaydi, beklar va amaldorlar Boburdan yuz o'girib ukasi Johongir Mirzoning tarafiga o'tib oladi. Bobur Samarqandni yuz kun idora eta oladi va keyin esa o'z yurti Andijon tomon yo'lga chiqadi. Xo'jandga yetkanda esa Andijon ham qo'ldan ketadi. So'ngra Bobur tog'asi yordamida Andijonni egallashga harakat qiladi lekin buni uddasidan chiqolmaydi. Keyinchalik Bobur ukasi bilan sulh tuzadi va o'z e'tiborini Shayboniixoniga qaratadi. Ular o'rtasida ham shijjatli jang ketadi lekin



afsuski Bobur bu janglarda yengiladi. Bu vaqtlar u Andijonni yoqotgan edi, shu bois ham u yangi yurt izlab Hindiston tomon keladi va Hindistonni egallaydi. U Hindistonni egallashda ham bir necha qiyinchiliklarga duchor bo'ladi lekin barcha qiyinchiliklarni yengib o'tib o'z maqsadiga yetadi. Davlatni egallash muammosidan so'ng Hindiston juda qattiq tushkunlikka yani ochlik, din bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Bobur bu muammolarni bartaraf etadi va Hindistonni gullab yashnashiga sabab bo'ladi. Bobur Hindiston ahliga erkinlik o'zaro yaxshi munosabat bildiradi va Hindistonda bir qancha me'moriy obidalar qurdira boshlaydi. Bu bilan bir qatorda u shoirlik ishini davom etiradi. U asosan o'z yurtiga bo'lgan sog'inchni ifodalab ruboiy va g'azallar yoza boshladi. Ishq-muhabbat, sog'inch-hijron va sevgi-sadoqat haqida bir qancha durdonalar yaratdi.

Qish garchi zamoni manaqalu otashtur,

Lekin bu shito Hindta ko'p dilkashtur,

Hangomi nishotu bodai beg'ashtur,

May bo'lmasa, ma'jun dog'i bo'lsa-xushtur.

Bobur o'zga yurtda bo'lsada o'z yurtining hijroni, sog'inchi, uni hech tark etmasdi. Har bir olgan nafasida bu yurtga bo'lgan sog'inchi sezilib turardi. U bu sog'inchni bartaraf etish uchun juda ko'plab asarlar yaratdi. Bulardan biri bu "Boburnoma"dir. Bu asar jahonga mashur bo'ldi va Hindistonda yaratilgan gavharga aylandi, ushbu asar o'z ichida Movaraunnahr, Xuroson, Hindiston tarixi, urf-odatlar va an'alarini, tarixiy shaxslarni aks etirgan. "Boburnoma"da yozilgan ma'lumotlarga ko'ra bu Boburning onasiga bo'lgan muhabbatidir va xabarlaridir. U onasi Qutlug' Nigorxonimni "Boburnoma"da juda ko'p ma'lumotlarini tilga olib o'tkan. Bundan ko'rinib turibdiki Boburning onasiga bo'lgan mehri va cheksiz muhabbati, o'z asari bo'lmish dunyoga mashhur "Boburnoma" asarida ham tilga olingan. Bundan bilamizki har bir inson kabi Bobur ham o'z volidasiga sevimli o'gil edi, u onasini jonidan ortiq yaxshi ko'rar va qiyinchiliklar sabab o'z ona yurti bo'lmish Andijonni, ilk qadamlari bo'silgan o'sha maskanni va sevgan insonlarini tashlab ketishga majbur bo'ladi. Yoshlik chog'idanoq qalamni qilichga almashtirib davlatim, elim deb bosib o'tgan qiyinchilikni yodga olib, vanihoyat tinchlik omonlik



topdim deganda sog'inch azobi uni qiynardi. Manashu alamli hijronni daftarga tushirar ekan uni ko'zlaridan qanchalik marjondek yoshlar oqani bizga begona. Bobur qanchalik mard, jasur va irodali bo'lmasin u ham hamma kabi inson edi. U ham barcha kabi tinch, osoyishta, hech qanday janglarsiz oilasi ota onasi, sevganlari bilan yashashga haqli edi. Lekin afsuski kuning o'n beshi yorig', o'n beshi qorong'u bo'lgandek unga ham yetarlicha taqdir sinovlari tayyorlanib qo'yilgan edi.

Ko'nglumda o'tu ikki ko'zumda suvdur,

Men xastag'a rahm qilki, holim budur.

G'am kunduzi-yu firoq shomi yanlig',

Tun-kun menga ne qaroru ne uyqudur.

Bobur mustahkam davlat tuzish uchun qo'lidan kelgan ishni qildi. U bu maqsadga erishish uchun juda ko'p harakat qildi va erishdi ham lekin. Bu davlat o'z yurti emasligi uni doim qiynab kelar edi. Hindiston gullab yaxshnadi barcha bunga havas qildi lekin Andijonchi? Boburning ona yurtichi? U umri davomida o'z yurti haqida o'yladi. Bu Bobur uchun doimo armon bo'lib qolishiga sabab bo'lgandi. U tarixga buyuk humkdor Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan muhr qo'ydi. O'z asarlari bilan insonlarni maftun etdi va buyuk shoir "G'azal mulkining Sultoni" nomi bilan ham tarix sahifalarini egalladi. Boburni yana eslashimizga sabab bo'ladigan bir hikoyasi mavjud. Bizni boshlang'ich sinf paytimizda "Boburni yeg'latgan qovun" nomli hikoya bo'lar edi. Biz bu hikoyani bolalik paytimizdayoq o'qiganmiz. O'sha lahzalarda ham Boburni qanchalik so'g'inch azobi qiynayotgani aks etkandi. Lekin biz juda kichik bo'lganimiz sabab bunga e'tibor bermaganmiz. Mana endi katta bo'ldik va endi fikrlay boshlar ekanmiz o'sha hikoyadagi Bobur nimani his etgani, uni yuragidagi bu chandig'ni qanchalar og'riqli ekanini tushuna boshlayapmiz. Bobur esa o'sha qovunni hali hamon saqlab kelgani bu uning muhabbati aksidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur tarix va kelajak uchun qo'lidan kelgan barcha ishni qilgani hammamizga ayon. Zero tarix bu kelajak uchun birinchi qadam ekanini, bu fikrdan tushunib olishimiz mumkin. Tarixsiz hech nimaga erishib bo'lmasligi va tarixdan xulosa qilibgina kelajakni yarata olishimiz mumkinligini hozirgina Zahiriddin Muhammad Boburning tarixida ko'rib chiqdik. Buyuk bobimizning



“Boburnoma” asarida ham bu so’zlar yoritib berilgan. Har bir g’azaliyu, ruboiysida uning yurgidagi kemtikliklar aks etgan. Ushbu asarning har bir satrida uning qalbini tub tubida qiynayotgan savollar yozilgan va har bir qismida u yurtning sog’inchini aks etirib qoldirgan. Hozirgi kunda Boburning merosi biz uchun sharaf va g’urur siymosidir. U faqatgina sarkarda yoki davlat arbobi emas balki Vatan sog’inchida ezilayotgan va doimo oilasini qumsovchi shaxs timsolida aks etadi. Uning xotirasi va bizga qoldirib ketgan oltinga teng yodgorliklari doimo qalbimizda iz qoldiradi. Hozir yoki kelajakda ham uning xotirasi doimo saqlanib qolishiga ishonch hosil qilsak bo’ladi. Zero hech bir inson hayotga shunchaki kelib ketmas, doimo har bir insonning ortidan xotiralar va buyuk hikmatlar meros bo’lib qolar. Endilikda Bobur siymosida davlat arbobigina emas balki buyuk shoir, shijoatli jangchi va chinakam fidoyi insonni, o’z yurti uchun hatto jonidan kechishga tayyor bo’lgan shaxsni ko’rishimiz mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasi mangu yuragimizda va xotiramizda saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiyot 5 sinf (Tashkent-2020)
2. Boburnoma (Tashkent-1960)

Manbalar:

1. <https://mgjxu.uz/oz/menu/zahiriddin-muhammad-babur>
2. <https://baburid.uz/bibliography/588>
3. <https://baburid.uz/library/130>